

Zamonaviy kompyuter dasturlarni o'rganish bo'yicha mahorat darsi

Qishloq xo'jaligi va zamonaviy mobil qurilmalar uchun yaratilayotgan elektron raqamli kartalarni yaratishda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanish va ularni hozirgi kunda sohada qo'llanilayotgan zamonaviy kompyuter dasturlar to'g'risida keng ma'lumotlarga ega bo'lish uchun "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti 3 - kurs talabalariga "Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida professor-o'qituvchilari va davlat Kartografiya ilmiy-ishlab chiqarish korxonasi xodimlari J. Egamberdiyev va D. Almatovlar tomonidan 5 - bino ikkinchi ma'ruzalar zalida mahorat darsi tashkil etildi. Unda talabalar elektron raqamli kartalarni zamonaviy kompyuter dasturlar bo'yicha kerakli ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Talabalar ishlab chiqarish korxonasidan kelgan xodimlarga o'z minnatdorliklarini bildirishdi va kelgusida talabalar tomonidan ko'chma amaliyot darslar tashkil etilishi rejalashtirildi.



"Geodeziya va geoinformatika" kafedrasida o'qituvchisi O'tkir Islomov axboroti
Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov